

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 67 892,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 120,2 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissasi 8,4 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



107,9 %

67 892,1 mlrd. so'm



120,2 %

8,4 %

- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

	<i>Mird. so‘m</i>		<i>O‘sish sur’atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2024- yil</i>	<i>2025- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>52 356,6</b>	<b>67 892,1</b>	<b>107,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	51 894,4	67 320,0	107,9
mahsulotlarga sof soliqlar	462,2	572,1	108,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>51 894,4</b>	<b>67 320,0</b>	<b>107,9</b>
<b>qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>4 507,4</b>	<b>5 273,4</b>	<b>104,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>40 109,4</b>	<b>53 518,7</b>	<b>108,5</b>
sanoat	37 722,2	51 047,1	109,3
qurilish	2 387,2	2 471,6	94,9
<b>xizmatlar</b>	<b>7 277,6</b>	<b>8 527,9</b>	<b>107,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	2 138,2	2 547,5	108,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 014,5	1 265,4	115,7
boshqa xizmat tarmoqlari	4 124,9	4 715,0	104,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 61 777,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

**2024- yil**

**2025- yil**

<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
----------------------	--------------	--------------

*shu jumladan:*

tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	99,1	99,2
---	------	------

mahsulotlarga sof soliqlar	0,9	0,8
----------------------------	-----	-----

<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
---	--------------	--------------

<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>8,7</b>	<b>7,8</b>
---	------------	------------

<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>77,3</b>	<b>79,5</b>
---	-------------	-------------

sanoat	72,7	75,8
--------	------	------

qurilish	4,6	3,7
----------	-----	-----

<b>xizmatlar</b>	<b>14,0</b>	<b>12,7</b>
------------------	-------------	-------------

savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,1	3,8
---	-----	-----

tashish va saqlash, axborot va aloqa	2,0	1,9
---	-----	-----

boshqa xizmat tarmoqlari	7,9	7,0
--------------------------	-----	-----

2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 99,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 0,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 7,8 % ni, sanoat tarmog'i 75,8 % ni, qurilish 3,7 % ni va xizmatlar sohasi 12,7 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (*jamiga nisbatan % da*)

2024- yil



8,7 % Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

0,9 % Sanoat

4,6 % Qurilish

14,0 % Xizmatlar

2025- yil

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7,8 %

0,8 %

Sanoat

75,8 %

Qurilish

3,7 %

Xizmatlar

12,7 %



● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 6,7 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 6,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,0 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Qurilish tarmog'i esa -0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,2 f.p.) salbiy hissani tashkil etdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,0 f.p.)ga ko'paydi.

## 2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

### YAHM



7,9 %

### Sanoat




6,7 %

### Xizmatlar



1,0 %

### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



0,3 %

### Qurilish



-0,2 %

### Mahsulotlarga sof soliqlar



0,1 %

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 7,8 %), sanoatda – 109,3 % (75,8 %), qurilishda – 94,9 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 107,3 % ni (12,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,6 % (3,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,7 % (2,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (7,0 %) iborat bo'ldi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

2024- y.

2025- y.



109,0 %

YAHM

107,9 %



103,5 %

Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi

104,0 %



109,4 %

Sanoat

109,3 %



126,3 %

Qurilish

94,9 %



105,9 %


Xizmatlar

107,3 %



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 120,2 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 123,8 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 112,5 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 14 246,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 12 449,6 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 21,2 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 24,0 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʼliq.

## Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da



2024- yil

12 449,6

24,0 %

2025- yil

14 246,1

21,2 %

